
Mahallabay ishlash orqali odamlarning taqdirini o'zgartirish mumkin - hokim yordamchisi

Mahallabay ishlash tizimi mahallalardagi muammolar, aholi turmushidagi muhim masalalarni birgalikda hal etish, har bir hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, mahallaning «o'sish nuqta»larini aniqlash imkonini bermoqda. Shu asosda har bir mahallaning o'ziga xos hayot tarzidan kelib chiqib, hududlarni rivojlantirish dasturlari va kambag'allikni qisqartirish rejalari ishlab chiqilgan bo'lib, tumanimizda bu borada keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugun hududlardagi xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, «mahallabay» ishlash tizimi asosida mahallaning o'sish nuqtasini aniqlash va uni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilayotganini e'tirof etish joiz..

Xususan, hududlarda «lider tadbirkorlar» soni oshib bormoqda. "Birlashgan" MFYda faoliyatini boshlayotgan Isomiddin O'rinboev donni qayta ishlash zavodini qurish orqali yangi ish o'rinlarni ko'paytirishni rejalashtirilgan.

— Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan mahallabay tizimi hokimiyat organlari va jamoatchilik boshini qovushtirib, aholi manfaatlari yo'lida faoliyat yuritishlariga zamin yaratyapti, - deydi "Birlashgan" MFY hokim yordamchisi Ravshan Saidov. - Eng muhimi, bunday yaxlitlik umumxalq harakatiga aylanib, joylarda yillar davomida to'planib qolgan masalalarga o'z vaqtida yechim topish ko'lamini oshirmoqda. Chunki hamma masalalar mahallaning o'zida hal bo'lsa, odamlar o'z muammosi bilan idorama-idora sarson bo'lib yurmaydi. Bu tizim orqali har bir insonning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o'zgartirish mumkin.

"Birlashgan" MFY hokim yordamchisi Ravshan Saidov kecha lider tabdirkor bilan uchrashib, donni qayta ishlash zavodida davom etayotgan qurilish jarayonlari bilan tanishdi.

2022-08-18 14:59:41